

Maktabdagi maroqli muloqot

Joriy yilning 5-fevral kuni Ingliz tili kafedrasida katta o'qituvchilari R.T. Kodirova, F.N Umarova, E.X Xolmurodovlar Institutimiz pedagogik jamoasi bilan hamkorlikdagi maktablardan 58-maktabning 9-10-11-sinf o'quvchilari bilan dildan suhbatlashib "Kelajaging o'z qo'lingda" "Ilm - kelajak garovi" "Orzularga mehnat va yuksak intizom ilm bilan erishiladi" mavzularida ochiq muloqot (davra suhbat) o'tkazildi. Davra suhbatida qizg'in savol - jaboblarga, fikr-mulohazalarga boy yo'sinda o'tdi. Institutimiz to'g'risidagi taqdimot (prezentatsiya) qo'yib namoyish etildi.



Muloqotning uch tilda olib borilishi, o'quvchilarning ham o'zbek, rus, ingliz tillarida qiziqish asnosida savollar berishlari e'tiborga molik bo'ldi. Muloqotimiz avjga chiqqan paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi deputati Fayzieva Dilorom Xusniddinovaning ittifoqi maktabga tashrif buyurishlari ham ayri-ayri ruh va kayfiyat baxsh etdi. Maktab direktori Bahromjon aka mazmundor va qiziqarli tarzda o'tgan tadbirdan shod bo'lib institutimiz Rektori nomlariga tashakkurnoma ham taqdim etdilar. Ushbu hamkorlik har ikkala tomon uchun ham manfaatli va maroqli bo'ldi.



TIQXMMI matbuot xizmati